IX–X ASRLAR SOMONIYLAR DAVLATIDA TURKIY HARBIY ELITA: BARS AL-KABIR FAOLIYATI VA SIYOSIY KURASHLAR.

Abdukamolova Moxlaroy Shuxratjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti 3-bosqich tayanch doktoranti
mohlaroyabdukamolova@gmail.com
+998911194846

Annotatsiya

Maqolada IX–X asrlarda Somoniylar davlati harbiy-siyosiy tizimida muhim o‘rin tutgan turkiy lashkarboshilardan biri – Bars al-Kabirning faoliyati tahlil qilinadi. Muallif tarixiy manbalar asosida Barsning Ismoil Somoniy xizmatidagi o‘rni, uning diplomatik va harbiy topshiriqlarni bajarishdagi roli, shuningdek, davlatdagi hokimiyat almashinuvi jarayonidagi siyosiy xatti-harakatlarini yoritib beradi. Tadqiqot o‘rta asrlarda g‘ulomlar tizimining shakllanishi, markaziy hokimiyat va viloyat voliylari o‘rtasidagi murakkab munosabatlar hamda turkiy harbiy elitaning davlat boshqaruvidagi ta’sirini ochib beradi.

Kalit so‘z va iboralar: *Somoniylar, Bars al-Kabir, Ismoil Somoniy, mahalliy voliy, iqtisodiy muxtoriyat, o‘tish davri, turkiy lashkarboshilar, g‘ulomlar tizimi, siyosiy tarix.*

KIRISH

IX va X asrlar davomida turk guruhlari askar sifatida Islom dunyosining sharqiy va markaziy hududlariga faol ravishda kirib kela boshlagan edilar. Bu davrda Eronda hukmronlik qilgan ikki yirik davlat – Buvayhiylar (932–1062) va Somoniylar (819–1005) ham mahalliy harbiy kuchlarga qo‘shimcha ravishda o‘z qo‘shinlari tarkibida turk askarlariga o‘rin berar edilar.

X asr boshlaridan e’tiboran Somoniylar davlatining noiblari va lashkarboshilari orasida turk ismlariga tez-tez duch kelinadi. Jumladan, Husom ad-Davla Tosh, Foyiq, Begtuzun hamda Simjuriylar oilasi e’tiborga molik turk lashkarboshilari va sulolalaridan hisoblanadi. Ayniqsa, ushbu oilalar ichida Simjuriylar Kuhiston hududida XI asr o‘rtalarigacha Saljuqiylar davrigacha o‘z mavjudligini saqlab qolgan.

Tarixiy manbalarda Somoniylar xizmatida bo‘lgan hojiblardan dastlabkisi Bars al-Kabirdir. Narshaxiy asarida hojib Bars al-Baykandiy nisbasi bilan tilga olinadi ***[1: 82]***. “al-Baykandiy” nisbasi mazkur g‘ulom Buxoro viloyatida, Xuroson yo‘li ustida joylashgan Baykand shahridan kelib chiqqanini ko‘rsatadi. Bars ismi turkiy tilda “yo‘lbars” degan ma’noni anglatadi ***[3: 84; 1]*** hamda o‘rta asrda turkiy xalqlarda ko‘p qo‘llanilgan ***[7: 4034-4035].*** Masalan, asli kelib chiqishi Dashti Qipchoqdan bo‘lgan mamluk sultoni Beybars ismida ham “bars” qo‘shilgan. Qadimgi turkiy runik yodgorliklarda (xususan, Talas bitiklarida) Bars, Qora Bars va Okul Bars kabi shaxs nomlari uchraydi ***[4: 92, 97, 100].*** Somoniylar amiri Ismoil ibn Ahmad as-Somoniy xizmatidagi turkiy lashkarboshilardan biri Bars al-Kabir nomi bilan tanilgan ***[1]***. Xalifaning Bulg‘or davlatiga yuborgan elchiligi tarkibida ham Bars (yoki Baris) as-Saqlabiy nomli shaxs ishtirok etgan. XI asrga oid Tamg‘achxon Ibrohimning vaqfnomasida esa Barstakin nomi qayd etilgan ***[6:449-453; 1]***. Bars (Baris) ismiga asoslanib qator toponimlar ham shakllangan. Jumladan, Xuroson hududida Baris nomli

rabot (karvonsaroy) mavjud bo‘lgan ***[5: 348].*** Shosh viloyatida Barsxat (yoki Barskat) nomli shahar tilga olinadi, shuningdek, Issiqko‘l atrofida Barsxon shahri mavjud bo‘lgan. XII asrda Buxorodan ikki farsax masofada joylashgan Barsxon (برسخان) nomli qishloq ham qayd etilgan. Ushbu toponim turkiy “Bars (Baris)” ismi va “xon” (hukmdor, unvon) so‘zining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan ***[1]***. Bulardan xulosa qilish mumkinki, Bars ismi turkiylar orasida keng tarqalgan ismlardan hisoblanadi.

Bars haqidagi dastlabki ma’lumot Ismoil Somoniyning Xurosonga 900-yildagi yurishida tilga olinadi. Narshaxiyda keltirilishicha, Amr ibn Laysga qarshi yurishga otlangan Amir Ismoil Amudaryo sohiliga yetganida Bars al-Baykandiy unga yordam berish uchun Xorazmdan Amuyaga keladi ***[1:82].*** Ushbu ma’lumotdan bilish mumkinki, Bars mazkur davrda yirik hojib mavqeiga yetgan, Xorazm hududlarini Qorategin Isfijobiy bilan birgalikda idora etgan. Bars al-Baykandiyning Xorazmdan kelib, Amudaryo (Amuya) bo‘yida Ismoil Somoniy qo‘shiniga qo‘shilishi Somoniylar davrida turli hududlar o‘rtasida harbiy hamkorlik mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu faqat markaziy hokimiyat buyruqlari asosida emas, balki shaxsiy sadoqat va siyosiy manfaatlar asosida ham shakllangan. Ismoil Somoniy qo‘shinida bunday sarkardalarning mavjudligi keyinchalik shakllanadigan g‘ulomlar tizimining dastlabki bosqichlarini aks ettiradi. Ya’ni, turkiy kelib chiqishga ega harbiylar asta-sekin davlatning asosiy harbiy tayanchiga aylana boshlagan.

Bars haqidagi keyingi ma’lumotlar Safforiylar davlatining yiqilishidan keyingi jarayonlar bilan bog‘liqdir. Jumladan, Ibn al-Asirda keltirilishicha, 902/903-yilda xalifaning Xurosondagi noibi Muhammad ibn Horun Bars tomonidan Ismoil Somoniy buyrug‘i asosida qo‘lga olinadi. Buning sababi shundaki, al-Muqtafiy Ismoil ibn Ahmad al-Somoniyga Ray shahriga voliy etib tayinlanganligi haqidagi farmonni yuborgan edi. Ismoil Rayga yo‘l oldi va u yerda Muhammad ibn Horun ham bo‘lgan. Muhammad Raydan ketib, Qazvin va Zinjonga yo‘l oldi, so‘ngra Tabaristonga qaytdi. Ushbu voqeadan keyin amir Ismoil Jurjonga dastlab o‘g‘li Ahmadni so‘ngra Bars al-Kabirni voliy etib tayinladi va unga har qanday yo‘l bilan bo‘lsa ham Muhammad ibn Horunni Buxoroga yetkazish majburiyatini yukladi. Bars Buxoroga maktub yozib, Muhammadni kelishiga va amir huzurida xavfsizligini ta’minlashga kafolat oladi. Muhammad uning so‘zlariga rozi bo‘ldi va Tabaristonda Justan ad-Daylamiy himoyasidan chiqib, Buxoroga Bars kuzatuvida yo‘l oladi ***[2:82].*** Muhammad ibn Horun Marvga yetganda, u yerda Bars al-Kabir tomonidan zanjirlar bilan bog‘lanadi. Bu 289-hijriy yilning sha‘bon oyida (903-yil) sodir bo‘ldi. Keyin uni Buxoroga tuya ustida jo‘natishdi. Buxoroda u hibsga olindi va ikki oy o‘tib, hibsda vafot etdi ***[2:82].*** Mazkur epizod Somoniylar davlatida markaziy hokimiyatning mustahkamlanishi jarayonida turkiy harbiy elita, xususan Bars al-Kabirning tutgan o‘rnini yaqqol namoyon etadi. 902–903-yillarda xalifaning Xurosondagi noibi Muhammad ibn Horunning qo‘lga olinishi va Buxoroga yuborilishi bevosita Ismoil Somoniy siyosiy strategiyasining bir qismi bo‘lib, unda Bars muhim ijrochi shaxs sifatida ishtirok etadi. Ismoil Somoniy tomonidan Jurjonga voliy etib tayinlangan Bars al-Kabirga Muhammad ibn Horunni har qanday yo‘l bilan Buxoroga yetkazish vazifasining yuklatilishi uning yuqori darajadagi ishonchga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Barsning Muhammad ibn Horunni qo‘lga olish usuli alohida e’tiborga loyiq. U avval Buxorodan xavfsizlik kafolatini olib, Muhammadni ishontiradi. Natijada

Muhammad Justan ad-Daylamiy himoyasidan chiqib, Bars bilan yo‘lga chiqadi. Bu holat ko‘rsatadiki, Somoniylar davrida siyosiy kurash faqat ochiq harbiy to‘qnashuvlar bilan emas, balki diplomatik hiyla va strategiyalar orqali ham olib borilgan. Bars bunday murakkab siyosiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lgan malakali arbob sifatida shakllangan. Biroq Marvga yetgach, Muhammadning zanjirband qilinishi – bu kafolatning buzilganini bildiradi. Bu esa o‘sha davr siyosiy amaliyotida pragmatik yondashuv ustun bo‘lganini, ya’ni siyosiy maqsadlar ko‘pincha axloqiy majburiyatlardan ustun qo‘yilganini ko‘rsatadi.

Barsning Xuroson noibligi ham oson kechmaydi. Ibn al-Asirga ko‘ra, voliy etib tayinlangan Bars qo‘lida Ray, Tabariston va Jurjon soliqlaridan yig‘ilgan, miqdori sakson yuk (vakr)ga yetadigan katta miqdordagi pul yig‘ilgan edi. U bu pullarni Ismoilga yuborish uchun yo‘lga chiqargan, ammo uning vafoti haqida xabar olgach, yuborishdan voz kechib, pullarini qaytarib olmoqchi bo‘ldi. Ahmad u yerga borish uchun yo‘lga chiqqanida, u qo‘rqib, al Muqtafiyga maktub yozib, unga panoh topmoqchi ekanini bildirdi ***[9:14].***

Ahmad ibn Ismoil Nishopurga yetib kelganida, Bars al-Kabir undan qo‘rqib, Jurjondan Bag‘dodga qochib ketdi. Barisning qo‘rquviga sabab shundan iborat ediki, ilgari amir Ismoil Jurjonni Muhammad ibn Zayddan tortib olganida, o‘z o‘g‘li Ahmadni bu yerga hokim etib tayinlagan edi. Keyinchalik esa Ahmadni lavozimidan chetlatib, uning o‘rniga, yuqorida aytilganidek, Baris al-Kabirni tayinlagan edi.

Basr Buxoroga yubormagan boyliklar miqdori haqida Mirxond asarida quyidagi ma’lumotlar keltirilgan: “Tabariston va Jurjon xirojidan katta boylik to‘planadi. Shuning uchun Barsning xazinasida sakson eshak yuki oltin va kumush tanga bor edi. Qimmatbaho buyumlar va jihozlarga kelsak, ular son-sanoqsizdir. Amir Ismoil umrining oxirida Bars bu boyliklarni yuklab, unga hurmat bajo keltirish uchun yo‘lga chiqdi. Yo‘lda u uning o‘limi haqida xabar topdi. Bars orqaga qaytib, boyliklarni qo‘lga oldi” ***[8:127-128].***

Davlat hududlarida to‘plangan katta miqdordagi mablag‘lar (80 yuk miqdoridagi xazina) mahalliy voliyning amaldagi mustaqilligini belgilaydi. Ismoil Somoniy vafotidan so‘ng Barsning bu boyliklarni markazga yuborishdan bosh tortishi, davlat apparatida “o‘tish davri” (hokimiyat almashinuvi) qanchalik xavfli ekanligini ko‘rsatadi. Bu holat viloyat voliylarining markazdan ajralib chiqishga bo‘lgan moyilligini va “iqtisodiy muxtoriyat”ga intilishini tasdiqlaydi.

Ahmad unga qarshi yo‘l olganini bilgach, Baris qo‘rqib ketdi va xalifa al-Muqtadir (908–932)ga maktub yozib, uning huzuriga borishga ruxsat so‘radi. Xalifa bunga ijozat berdi va Bars to‘rt ming kishilik qo‘shin bilan yo‘lga chiqdi. Ahmad uning ortidan qo‘shin yuborgan bo‘lsa-da, ular Barsni quvib yeta olmadilar. Bars xalifa tomonidan Bag‘dodga yetib kelgach unga Diyor Robi’a hududining qo‘mondonligi topshiriladi.

Xalifa Barsni qabul qilish orqali Somoniylar hukmdorlarining ta’sirini kamaytirishga uringan. Ya’ni, markaziy hokimiyatdan qochgan nufuzli sarkardalarni himoyaga olish – bu xalifaning Somoniylar ichki siyosatiga aralashish va ularni zaiflashtirish usuli edi. Bu esa Buxoro va Bag‘dod o‘rtasidagi munosabatlar faqat rasmiy do‘stlikdan iborat bo‘lmaganini, balki chuqur siyosiy intrigalarga to‘la bo‘lganini anglatadi.

Ibn al-Asirda keltirilishicha, al-Muqtadir Barsni o‘z qo‘shini bilan Banu Hamdon qabilasi yerlariga yubordi va uni Diyor Rabi’a viloyatiga hokim etib tayinladi ***[9:14]***. Shu bilan Bars oradan 10 yildan oshiq vaqtdan keyin Layla ibn an-Nu’mon ad-Daylamiy o‘ldirilishi voqealarida tilga olinadi.

922-yilda Layla ibn an-Nu’mon ad-Daylamiy o‘ldirildi. Mazkur Layla al-Utrush al-Alaviy avlodining lashkarboshilaridan biri bo‘lib, Jurjon viloyati uning qo‘l ostida edi. Uni bu lavozimga 308-hijriy yilda (920–921) al-Hasan ibn al-Qosim ad-Da‘iy tayinlagan edi. Layla saxiyligi, mol-dunyoni ayamaydiganligi, jasorati va xavfli vaziyatlarda mardona harakat qilishi bilan ajralib turgan. U Jurjondan Damg‘on tomonga yurish qildi. Damg‘on aholisi unga qarshi jangga kirishdi, biroq Layla ularning ko‘pchiligini qirib tashladi. Shundan so‘ng u Jurjonga qaytdi, Damg‘on aholisi esa kelgusida himoyalanish maqsadida qal’a barpo etdilar ***[2:95]***.

Keyinchalik Qorategin unga qarshi Jurjonga yo‘l oldi va ular Jurjondan taxminan o‘n farsax masofada to‘qnashdilar. Bu jangda Qorategin mag‘lubiyatga uchrab qochdi, uning g‘ulomi Bars esa ming nafar otliq bilan Laylaga taslim bo‘ldi. Layla uni saxovat bilan mukofotladi va o‘z singlisiga uylantirdi. Shuningdek, Ahmad ibn Sahlning jiyani bo‘lgan Abu-l-Qosim ibn Hafs ham Layla tomoniga o‘tib, uning tomonidan mukofotlandi.

Shundan so‘ng Laylaning qo‘shinlari son jihatdan ortdi, biroq u katta miqdorda mablag‘ga muhtoj bo‘lib qoldi. Al-Hasan ibn al-Qosim ad-Da’iyning buyrug‘i va Abu-l-Qosim ibn Hafsning undovi bilan Layla Nishopur tomon yurish qildi. Bu paytda Nishopurda Qorategin joylashgan edi. Layla 308-hijriy yil zulhijja oyida (921-yil aprel-may) Nishopurga yetib keldi va bu yerda xutbani ad-Da’iy nomiga o‘qitdi.

As-Sa’id Nasr unga qarshi Hamavayh ibn Ali boshchiligidagi qo‘shin yubordi. Ular Tusda to‘qnashdilar va jang boshlandi. Hamavayh qo‘shinining katta qismi qochib, Marvgacha yetib bordi. Hamavayh esa Mervda Muhammad ibn Abdallah al-Bal’amiy, Abu Ja’far Sa’luk, Xorazmshoh va Simjur ad-Davotiy bilan birga qarshilikni davom ettirdi. Ular yana jangga kirishdilar va bu safar Layla tarafdorlari mag‘lubiyatga uchrab qochdilar ***[9: 107].***

Layla ortga chekinar ekan, chiqish yo‘li bo‘lmagan tor daraga kirib qoldi. Shu yerda uni hojib Bug‘ro ta’qib qilib yetib oldi. Layla qochib qutula olmadi, otidan tushib, bir uyga yashirindi. Bug‘ro uni qo‘lga olib, Hamavayh huzuriga yubordi. Hamavayhning buyrug‘i bilan Bug‘ro Laylaning boshini kesib, nayzaga ilib qo‘ydi.

Laylaning tarafdorlari bu holatni ko‘rib, omonlik so‘radilar va ularga afv berildi. Laylaning o‘ldirilishi 309-hijriy yil rabiy al-avval oyida (921-yil iyul-avgust) sodir bo‘ldi. So‘ngra uning boshi Bag‘dodga yuborildi. Qorategginning g‘ulomi Bars esa undan ajralib, mustaqil ravishda Jurjonda qolib ketdi ***[2:96].*** Layla ibn an-Nu’mon o‘ldirilgach, Qorategin Jurjonga qaytib keldi. Bars unga taslim bo‘ldi, biroq Qorategin uni qatl ettirdi va o‘zi Jurjondan chiqib ketdi.

Layla ibn an-Nu’mon voqealarida Qorategginning g‘ulomi bo‘lgan Barsning o‘z xo‘jayinini tashlab, raqib tomonga o‘tishi, keyin esa Layla mag‘lub bo‘lgach, yana Qorategga qaytishi – o‘rta asrlar “harbiy xizmat” tizimining kutilmagan jihatlarini

ochib beradi. Bunday vaziyatda harbiy xizmatchi uchun eng muhimi — o‘z bo‘linmasi bilan birga tirik qolish va g‘olib tomonga xizmat qilish orqali o‘z mavqeini tiklash edi. Qorategin uchun esa Barsning qatl etilishi xiyonat uchun jazo va “siyosiy tozalash” operatsiyasi edi. Ya’ni bu g‘ulomlar (mamluklar) tizimidagi hojiblar o‘rtasidagi siyosiy kurash ham edi. Bu yerda Barsning mustaqil ravishda Jurjonda qolishga urinishi – markaziy hokimiyat (Somoniylar) va viloyatdagi harbiy lashkarboshilar o‘rtasidagi vakolatlar kurashining kichik maydoni sifatida namoyon bo‘ladi.

Hojib Barsning vafotidan keyin ham uning o‘g‘li Ibrohim Somoniylar davlatida xizmat qilganligi haqidagi ma’lumotlar uchraydi. 332/943–44-yillarda, taxtga chiqishidan qisqa vaqt o‘tib, Nuh ibn Nasr Xorazmda Abdalloh ibn Ashkam boshchiligida yuzaga kelgan isyon bilan shug‘ullanishga majbur bo‘ldi. Nuh unga qarshi Ibrohim ibn Barisni yubordi, ammo u isyonni bostirishga ulgurmasdan Xorazm yo‘lida bo‘lganida vafot etadi. Somoniylar harbiy qo‘shin yuborganini eshitgan Abdalloh ibn Ashkam turklardan himoya so‘raydi ***[2:82]***. Ushbu epizoddagi Ibrohim, ehtimol, Nuhning taxtga chiqishi boshida Bag‘dodga qochgan Bars al-Kabirning g‘ulom o‘g‘li bo‘lishi mumkin.

Mazkur tadqiqot Bars al-Kabir misolida IX–X asrlar Somoniylar davlatida turkiy harbiy elitaning o‘sib borayotgan ta’sirini va davlat boshqaruvidagi tutgan o‘rnini yaqqol namoyon etadi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, Bars kabi lashkarboshilar nafaqat oddiy harbiy xizmatchilar, balki murakkab siyosiy intrigalar, diplomatik hiylalar va iqtisodiy manfaatlarni boshqaruvchi subyektlar bo‘lishgan. Ularning faoliyati davlatning markazlashuv jarayoniga, viloyatlardagi muxtoriyat intilishlariga hamda Buxoro va Bag‘dod o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Hatto dastlabki yillarda ham, Bag‘dod va Buxoro o‘rtasidagi aloqalar yaqin bo‘lishiga qaramay, munosabatlar faqat rasmiyatchilik ko‘rinishida edi. Bir necha holatda, xalifa, aniqrog‘i uning vazirlari, Somoniy manfaatlariga qarshi harakat qilgan. Jumladan, xalifa tomonidan Xurosondan qochgan hojib Barsga boshpana berishi, Xuroson voliyligi da’vosini ilgari surgan Somoniy isyonchilarini qo‘llab-quvvatlash va Somoniy voliylarini Seistan hududidan quvib chiqarishga rasmiy farmon berish masallarini misol qilib keltirish mumkin.

Shuningdek, Barsning xizmat faoliyati va keyinchalik markaziy hokimiyatga nisbatan tutgan pozitsiyasi o‘rta asrlar davlatchiligida “g‘ulomlar” tizimining o‘ziga xos pragmatik va ba’zan xavfli jihatlarini ochib beradi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar

1. Абу Бакр Мухаммад ибн Джа‘фар ан-Наршахи. Та’рих-и Бухара. История Бухары. Перевод, комментарии и примечания Ш.С.Камолиддина. Археолого-топографический комментарий Е.Г.Некрасовой. – Ташкент: SMIA-SIA, 2011. – 600 с.
2. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та’рих (Полный свод истории) / Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова. Дополнения к переводу, примечания и комментарии, введение и указатели Ш.С. Камолиддина. – Ташкент: Узбекистан, 2006. – 559 с.

3. Древнетюркский словарь. - Ленинград: Наука, 1969. – С. 84.
4. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности Монголии и Киргизии. – Москва: Изд-во Акад. наук СССР. Ленингр. отд-ние, 1959. – С. 92, 97, 100.
5. Al-Moqaddasī, Abu’Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Descriptio Imperii moslemici / Ed. M. J. de Goeje, BGA, pars 3. LugduniBatavorum: E. J. Brill, 1967. – P. 348.
6. Bosworth C. E. A Propos de I'article de Mohamed Khadr: «Deux actes de waqf d'un Qarahenide d'Asie Centrale» // JA. CCLVI. – Paris, 1968. – P. 449–453.
7. Dehkhoda. Vol. 3. – P. 4034–4035
8. Historie des Samanides par Mirkhond. Texte persan, traduit et accompagne de notes criticis, historiques et geographiques par M.Defremery. – Parij, 1832. – 312 p.
9. Ibnu’l Esir. Islam tarihi. El Kamil Fi’t Tarih Tercumesi. / Ceviren Dr. Ahmet Ağırukça. – 8 Cilt. – Istambul: Bahar yayinlari. – 617 s.